

“CHINOR” ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLARI TAHLILI**Mustafoyeva Sevinch Mamasoat qizi**

Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika Instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

sevinchmustafoyeva427@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20045054>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Chinor” romanidagi obrazlar tizimi tahlil qilinadi.

Asarda bosh va ikkinchi darajali obrazlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning xarakteri hamda badiiy vazifasi yoritib berilgan. Muallif tomonidan yaratilgan obrazlar orqali inson ruhiyati, ma’naviy kamolot masalalari va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tahlil etiladi.

Shuningdek, maqolada obrazlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ziddiyatlar hamda ularning asar g‘oyasini ochishdagi o‘rni ilmiy asosda bayon qilingan. Tahlil natijasida romandagi obrazlar tizimi asarning badiiy-estetik qiymatini oshiruvchi muhim omil ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: “Chinor” romani, badiiy obraz, bosh qahramon, ikkinchi darajali obrazlar, obrazlar tizimi, xarakter tahlili, badiiy tahlil, ma’naviy kamolot, ijtimoiy munosabatlar, adabiy tahlil.

Аннотация. В данной статье проводится анализ системы образов в романе «Чинар». Рассматриваются особенности главных и второстепенных персонажей, их характеры и художественные функции. Через созданные автором образы раскрываются вопросы человеческой психологии, духовного совершенствования и социальных отношений в обществе. Также в статье научно обоснованно освещаются взаимоотношения между персонажами, конфликты и их роль в раскрытии основной идеи произведения. В результате анализа делается вывод о том, что система образов в романе является важным фактором, повышающим его художественно-эстетическую ценность.

Ключевые слова: Роман «Чинар», художественный образ, главный герой, второстепенные персонажи, система образов, анализ характера, художественный анализ, духовное совершенствование, социальные отношения, литературный анализ.

Annotation. This article analyzes the system of characters in the novel “Chinor.” It examines the specific features of both main and secondary characters, their personalities, and their artistic functions. Through the characters created by the author, issues of human psychology, spiritual development, and social relations in society are explored. The article also scientifically discusses the relationships between characters, conflicts, and their role in revealing the main idea of the work. As a result of the analysis, it is concluded that the system of characters in the novel is an important factor that enhances its artistic and aesthetic value.

Keywords: “Chinor” novel, artistic image, main character, secondary characters, character system, character analysis, literary analysis, spiritual development, social relations, artistic analysis.

Kirish.

Asqad Muxtorning “Chinor” romani o‘zbek adabiyoti dadavrlararo uzviylik, ma’naviy meros va shaxsiyat shakllanishini chinor obrazi orqali ifodalagan yirik falsafiy-psixologik asardir.

Roman inson umri, milliy an'analar va zamonaviy o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni, ota-bobolar merosi va yangi avlod munosabatini tahlil qiladi. Avlodlar almashinuvi va ma'naviy vorislik asosiy ustuvorlik qiladi. Roman voqealari 60-yillar hayoti asosida qurilgan.

Metodologiya. Asar bir necha qahramon taqdirini qamrab oladi. Til va uslubi sodda, ammo teran falsafiy mazmunli, mushohadalarga boy. "Chinor" – milliy o'zlikni anglash va o'tmish bilan kelajakni bog'lash haqidagi asar. Asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu maqolada keltirilgan xulosalar Asqad Muxtorning "Chinor" romani matni va taniqli adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlariga tayanadi.

NATIJALAR VA TAHLIL

1.Ochil buva – hayotiy tajriba timsoli

Roman voqealarini tahlil qilar ekanmiz, unda asar qahramonlarining kelib chiqishi, milliy qadriyatlarini ulardagi og'ir sinovlar va qiyin vaziyatlarda o'ziga bo'lgan ishonchini va sabr-toqatini kuzatishimiz mumkin. Asardagi barcha qahramonlarni birlashtirib turuvchi obraz sifatida Ochil buva obrazi keltiriladi. Asardagi bosh qahramonlardan biri — Ochil buva obrazi sabr-toqat, ishonch va hayotiy tajribaning timsolidir.

Muallif uni butun boshli oilaning tayanchi, avlodlar bog'lovchisi sifatida tasvirlaydi. U.Normatovning adabiy-tanqidiy qarashlariga ko'ra, "Chinor" romanidagi qahramonlar taqdiri milliy qadriyat va insoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.[3;18] Ochil buvaning sabr-bardoshi, ming yillik orzulari bilan bog'liq ruhiy iztiroblari asar davomida o'z ifodasini topadi. Shu orqali muallif insonning dard, sog'inch, umid va bardoshni qanday yengishini badiiy tarzda ko'rsatadi.[2;16] Negaki, chol umr bo'yi ko'pni korgan, hayotning achchiq-chuchuk tamlarini totgan. Bundan tashqari, Ochil buva chinorga o'xshatilishining sabablaridan biri chinor o'zida necha ming yillik dard-hasratni o'z kovak bag'rida saqlab keladi. Ochil buva ham butun boshli oilasining dard-u alamlari, sarob bo'lgan orzulari bilan yashab kelmoqda. U yoshi ulug', sabrli hamda shajarani saqlab qolishga uringan tadbirli shaxs sifatida ulug'lanadi. Umarali Normatov nuqtayi nazaridan romandagi qahramonlar faqat shaxsiy hayotiy voqealar bilan chegaralanmaydi, balki ularning taqdiri, milliy, tarixiy ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog'liq.[8;112]

U.Nurmamatovning adabiy tanqidiy uslubida har bir qahramon ruhiy kechinmalar, axloqiy tanlovlar va jamiyat bilan o'zaro aloqalar orqali badiiy portret sifatida shakllantiriladi.[1;16]

2.Akbarali – mo'rt bir barg.

Akbarali obrazi esa murakkab ruhiy kechinmalar, shaxsiy izlanish va o'z yo'lini topish istagini ifodalaydi. U mustaqil fikrli, ammo ichki iztiroblarga berilgan qahramon sifatida tasvirlanadi. Muallif uni "mo'rd barg" deb atab, uning injiqlik va jur'atlik o'rtasidagi kurashini ochib beradi. U Sharofat ayaning yolg'iz o'g'li bo'ladi. Otasi urush yillari vafot etgandan keyin mushtipar ona o'zi yemay yediradi, kiymay kiydirib hech kimdan kam qilmay voyage yetkazadi.

Biroq o'g'il onasining hamma orzu-o'ylarini ezgu havaslarini sarobga aylantiradi. Kasal bo'lib yotib qolgan paytlarda ham onasini parvarish qilish o'rniga uyga mast ahvolda kelib oshna-og'aynilari bilan maishat qilib yuradi, hattoki onasining so'nggi vasiyatini ham bajarmaydi. Filolog Karim Bahriyev "Shaxs va zamon" nomli maqolasida qahramonlar hamda jamiyat hayoti haqidagi fikrlarini ochib beradi. "Hech kim va hech narsa bir holatdan ikkinchi bir holatga o'z o'zidan o'tib qolmaydi. Albatta, bunga tashqi muhitning ta'siri bo'ladi".[2;7]

Shuningdek, Akbaralining bu ahvolga kelishiga o'sha tun, o'sha yomg'ir va o'sha bir ko'zi ko'r qorabayir insonning ta'siri katta. Yarim tunda Akbaralining uyiga otasining armiyada birga xizmat qilgan do'sti Bektemir aka kirib keladi.

U ancha yillardan beri uzoq o'lkalarda tutqunlikda bo'lganini endi ozodlikka chiqqani, shuningdek, xotini va qizining oldiga yorug' yuz bilan pul ishlab borishini aytadi. Ertasi kuni Akbarali uni o'zi ishlaydigan kongra olib boradi va ruxsatnomasiz kirish mumkin bo'lmaganligi uchun o'z ishchi kiyimlarini Bektemir akaga berib turadi va shu kuni kutilmagan baxtsiz hodisa yuz berib konda transformator portlab ketadi.

Bektemir aka transformatorning ostida qolib ketib butun tanasi parchalanib yuzi tanib bo'lmas bir ahvolga kelib qoladi. Ishchilar uni formasidagi ruxsatnomaga qarab topishadi.

Formada Akbarali G'oziyev yozuvi bor edi.[234;514] Phd Izzat Sulton qarashiga ko'ra, asarda o'nlab insonlar taqdiri shafqatsiz va chigal hayoti ular xuddi cho'ldagi bir uyum xashak singari tasvirlanadi.[5;32] Romandagi qissa yakunida Akbaralining otasining do'sti Bektemir bilan bo'lgan uchrashuvi, uning fojaviy yakuni — hayotning kutilmagan burilishlari fonida inson orzularining sinovini ifodalaydi.

3.Onabibi – matonat timsoli sifatida.

Romanda Asqad Muxtor ayol portretiga ham alohida to'xtaladi. Asar davomida qahramonlar portretlarini ba'zan muallif tilidan, ba'zan esa qahramonlar tilidan chizilganini ko'ramiz. "Bozorqul eshikka kelib tashqariga quloq soldi, Onabibini ko'z oldiga keltirdi: u anordek tiqmachiq, durkungina, otash..."[3;13] Yuqoridagi Bozorqulning ayoli Onabibi portretini chizishda ijodkor o'xshatish tasvir vositalaridan foydalangan. U to'ladan kelgan bo'lsa-da, chiroyli his- tuyg'uga limmo-lim ayol sifatida tasvirlaydi.

Portret adabiy qahramonning tashqi ko'rinishini tasvirlash asosida uning xarakter qirralarini ochishga xizmat qiladi. Mahorat bilan chizilgan portretlar esa inson obrazini yorqinlashtirish, ruhiy tadqiq etish vositasiga aylangan. Bunda ijodkorlar har xil yo'nalishdan foydalanishadi. Masalan, obrazlar xarakterini ochishda uning tashqi ko'rinishi, kiyim kechaklari, yuz-qiyofasini bir nuqtada mufassal yoritadi. Yana bir yo'nalishlardan biri bu qahramonni boshqa bir qahramon tilidan ifodalaydi. Qahramonga xos kichik detalni berish bilan birga uning tashqi ko'rinishi haqidagi tasavvur o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Misol qilib olganda, "Onabibi podachining halim go'jasidan semirib, ikki yuzi lo'ppi, las kamzul ustidan zebigardon, qo'ltiq tumor taqib yurardi, bekorchilikda o'sma tortib, xol qo'ndirardi".[3;14] Ijodkor bu tasvir bilan o'zbek ayolining milliy qiyofasini o'zbekona zebigardon, qo'ltiq tumor, o'sma kabi buyumlar orqali o'quvchi tassavurida gavdalantiradi.

Adabiyotshunos portretni keng va tor ma'noda qo'llash mumkinligi, tor ma'noda faqatgina qahramon tashqi ko'rinishi tasvirlansa, keng ma'noda esa individual-psixologik ya'ni ichki ruhiyatini aks etishini ta'kidlaydi. O'z navbatida portret unsurlarini yuz, ko'z, ko'zyoshi va boshqa unsurlarni sanab o'tadi. Bu bilan olimning fikrlaridan portret asar uchun kerak bo'lgan qimmatli unsur ekanini anglab olishimiz qiyin emas.[6;173]

4.Mariya Vasilyevna – ishbilarmon ayol obrazi.

"Mariya Vasilyevna birdan qah-qah otib kulib yubordi. U chiroyli emas, yuzi hatto shiddatliroq, lekin kulsa ko'rkam bo'lib ketar edi, Orif aka hali kulgining sababini tushunib yetmasa ham, qo'shilishib kuldi." [3;62]. Asardagi Mariya Vasilyevna Obkom sekretari, diplomat ayol, ishbilarmon, o'ziga bo'lgan ishonchi baland ayol, bu hatto uning tashqi ko'rinishida ham aks etadi. U uncha chiroyli emas, lekin kulsa ayollik latofati namoyon bo'ladi.

Uning xarakteri, psixologik- tempramenti shiddatli, ishiga talabchan, qahri qattiq. Ushbu portret orqali ijodkor yana bir ayolning ichki olamini ochadi.

5.Orif obrazi: Haqiqatgo'y va o'ziga ishongan shaxs. Romandagi Orif obrazi ham kishi e'tiborini tortadigan alohida obraz.

Uning dastlab Shivilg'onlik Saragulga uylanishi, keyin farzandli bo'lolmay bir qizni asrab olgani va unga Onabibi deb ism qo'yishi va Saraguldan ham ayrilib qolishi, shunday qiyinchiliklarga bardosh berib yashashi ham alohida tahsinga sazovor. U hayotdan faqat haqiqat, adolat izlagan va atrofdagilardan ham shuni talab qilgan, ko'nglidagilarni hayiqmay ayta oladigan jasur obraz. Buni biz uning Mariya Vasilyevna bilan yana qizining o'qituvchisi Shafigullina bilan bo'lgan suhbatdan ham bilishimiz mumkin.

Munozara: Chinor romani o'zbek adabiyotida inson ruhiyati, ma'naviy izlanishlar va jamiyatdagi murakkab munosabatlarni yoritgan muhim asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar yuzasidan adabiyotshunoslar va kitobxonlar o'rtasida turli qarashlar mavjud bo'lib, ayniqsa obrazlar tizimi va ularning badiiy vazifasi haqida munozarali fikrlar uchraydi.

Bir guruh tadqiqotchilar romandagi obrazlarni chuqur psixologik asosda yaratilgan deb hisoblaydi. Ularning fikricha, bosh qahramon obrazi orqali insonning ichki kurashlari, ma'naviy iztiroblari va o'zini anglash jarayoni juda real va ta'sirchan tasvirlangan. Bu esa asarning badiiy qiymatini oshiradi hamda uni o'quvchi qalbiga yaqinlashtiradi.

Boshqa qarashga ko'ra esa, ayrim ikkinchi darajali obrazlar yetarlicha ochilmagan. Ular faqatgina bosh qahramon xarakterini yoritish vositasi sifatida xizmat qiladi, mustaqil badiiy ahamiyatga to'liq ega emas. Shu sababli ayrim tanqidchilar asarda obrazlar o'rtasidagi muvozanat yetarli darajada saqlanmagan deb hisoblaydi. Yana bir muhim bahsli jihat — asarda ijtimoiy muammolarning qay darajada chuqur yoritilganligidir. Ba'zi adabiyotshunoslar roman jamiyatdagi ziddiyatlarni ochib berishda muvaffaqiyatli bo'lganini ta'kidlasa, boshqalar bu masalalar faqat umumiy ko'rinishda berilganini, ularning ijtimoiy ildizlari yetarli darajada tahlil qilinmaganini qayd etadi.

Shuningdek, romandagi obrazlar o'rtasidagi munosabatlar ham turlicha talqin qilinadi.

Bir qarashga ko'ra, bu munosabatlar hayotiy va tabiiy bo'lsa, boshqa fikrga ko'ra, ayrim holatlarda ular badiiy sun'iylikka ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "Chinor" romani turli qarashlarga sabab bo'layotgan murakkab va ko'p qatlamli asardir. Aynan shu jihat uning adabiy ahamiyatini oshiradi.

Munozaralarning mavjudligi esa asarning hali ham dolzarb ekanini va o'quvchini fikrlashga undashini ko'rsatadi. Muallif Asqad Muxtor romandagi har bitta obrazni xarakterga mos chizgilar bilan yaratadi. Roman o'tgan asrning 60-yillarida yaratilgan bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Muxtor, A. Chinor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. Yo'ldoshev, Q. O'zbek romanchiligi poetikasi. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Normatov, U. Adabiy jarayon va talqin. – Toshkent: Yozuvchi, 1987.
4. Karimov, F. Shaxs va zamon. – Toshkent: Fan, 1991
5. Jo'rayev, M. O'zbek adabiyotida obraz va tafakkur. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2009.
6. Nurmatov, U. Adabiy tanqid asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – 2000–2005.